

## **TAKRORIY EKIN SIFATIDA MOSHNI YETISHTIRISHDA SUG'ORISH TARTIBLARINING DON HOSILDORLIGIGA TA'SIRI**

*Safarova Xilola Xolmatovna*

*mustaqil tadqiqotchi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish  
instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Buxoro viloyatining o'tloqi-alliyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida moshning "Marjon" va "Durdona" navlarini turli sug'orish tartiblarida sug'orilganda, moshning don hosiliga ta'siri bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *sug'orish tartibi, sug'orish usuli, sug'orish texnologiyasi, arid, hosildorlik, sizot suvlar rejimi, gidramodul, kiritik chuqurlik, sug'orish.*

Respublikamiz sharoitida kuzgi bug'doydan 60-70 s/ga takroriy ekin sifatida yetishtiriladigan mosh ekinidan esa 15-20 s/ga don hosili yetishtirib, bir mavsum davomida yetishtirilgan don hosilini 75-90 s/ga yetkazish imkoniyatlari mavjud. Yer yuzida dukkakli-don ekinlari 135 mln gektar maydonida ekiladi. Dukkakli-don ekinlar orasida mosh ekiladigan maydon hajmi jihatdan jahonda soyadan (dunyo bo'yicha soya maydoni 74 mln gektarga yaqin) keyin ikkinchi o'rinni (25 mln gektarga yaqin) egallab, uchinchi o'rinda no'xat (dunyoda jami 10 mln gektarga yaqin) turadi.

Markaziy Osiyo va Kavkazorti Respublikalarida moshdan oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladi. Moshdan tayyorlangan un marakonga qo'shilmas, uning to'yimlilikini yanada ortadi. Mosh dukkakli-don ekinlar guruhiga mansub bo'lib, donida ko'p miqdorda 24-28 % oqsil to'plamadi. Undan to'yimli oziq-ovqat sanoati bilan birga chorva hayvonlari uchun to'yimli yem-xashak ham yetishtirish mumkin. Shuningdek, moshning ildizlarida tuganak bakteriya rivojlanib, erkin azotni o'zlashtirib, tuproq unumdorligini oshiradi.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, o'simlikda hosildorligi yuqoriligini hosil elementlarining miqdori va sifati belgilaydi. Moshda ham don hosildorligi o'simlikda shakllangan hosil elementlari, ya'ni dukkaklar soni va undagi donning ko'pligi va sifatiga bog'liqdir. Takroriy ekin sifatida Mosh kuzgi bug'doy ekilganida, yuqori hosili olish maqsadida sug'orish tartiblarini to'g'ri qo'llash talab etiladi.

**Tadqiqot obekti.** Buxoro viloyatining qadimdan sug'oriladigan, o'tloqi allyuvial, sho'rланishga moyil tuproqlari, sug'orish tartiblari, takroriy ekin moshning "Marjon" va "Durdona" navi olingan.

**Tadqiqotlar natijasi.** Buxoro viloyati Buxoro tumani tumanidagi "Muhammad-CHoriqiy" fermer xo'jaligi dalasida amalga oshirildi. Moshning Marjon navida 1-variantda 3 ta nuqtadan olingan o'rtacha vazni topilganda 64,0 gr bo'ldi, 2-variantda 65-65-65 % sug'orish tartiblari bo'yicha sug'orishda 69,0 gr bo'lgan bo'lsa, 3 va 5-variantlarda (nazorat) mos ravishda 63,0 gr bo'lganligi aniqlandi. Tajribaning 4 va 6 variantlari sug'orish oldi tuproq namligi 70-70-65 % va 75-75-65 % bo'lganda 1000 dona don og'irligi 75-70 gr ni tashkil etdi. Moshning 1000 dona don og'irligi sug'orish tartiblariga mos ravishda o'zgarib bordi. Jumladan moshning Durdona navini etishtirishda 1-variantda 58,3 gr, 2-variantda 64 gr, 3-variantda 58,7 gr, 4-variantda 69,0 gr, 5-variantda 59,0 gr va 6-variantda 65,3 gr ni tashkil etdi. 2021-yilda mosh navlarining 1000 dona don og'irligi bo'yicha olingan ma'lumotlar 4.8.1-jadvalda keltirib o'tilgan.

Demak, Buxoro viloyatining o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doy ang'izida takroriy ekin sifatida mosh etishtirilganda sug'orish tartibi CHDNS ga nisbatan 70-70-65 % bo'lganda dukkakdagi don sonini eng yuqori bo'lishini ta'minlaydi

Moshning hosildorligi 1000 dona don vazniga bog'liqdir Tajriba maydonida eng yuqori don hosili moshning nisbatan tepishar Marjon navida kuzatildi, bunda mavsum davomida sug'orishlardan oldingi tuproq namligi CHNS ga nisbatan 70-70-65 % bo'lib, 3 marta sug'orilganda o'rtacha 3 yil davomida 16,1 s/ga don hosili olingan. SHu navni sug'orishlardan oldingi tuproq namligi CHNS ga nisbatan 65-65-65 % bo'lib, 3 marta

sugʻorilganda navning don hosildorligi 13,2 s/ga ni, sugʻorishlardan oldingi tuproq namligi CHNS ga nisbatan 75-75-65 % boʻlib, mavsum davomida 3 marta sugʻorilganda oʻrtacha 15,4 s/gani tashkil qilgan. Bu koʻrsatkichlar nazorat variantlarga nisbatan sugʻorish tartibiga mos ravishda 2,6, 4,7 va 2,7 s/ga yuqori boʻlganligi aniqlandi. Moshni Durdonavining 1-variantida 9,7 s/ga, 2-variantida 12,8 s/ga, 3-variantida 11,3 s/ga, 4-variantida 14,1 s/ga, 5-variantida 11,6 s/ga hamda 6-variantida 13,5 s/ga tashkil etgan. Moshning Durdonavida ham nazorat variantlarga nisbatan sugʻorish tartibiga mos ravishda 3,1, 2,8 va 1,9 s/ga yuqori boʻlganligi aniqlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Oʻzbekiston Respublikasi prezidentining 2023-yil 1-apreldagi PQ-107-son “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar” toʻgʻrisida
2. Ernazarov Sh.Negmatova S.Nortoshev N Angʻizda takroriy ekin yetishtirish.“Agro ilm”.Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi jurnali ilmiy ilovasi, Toshkent, 2007. № 1(9). B. 13.
3. Agrobank “100 kitob toʻplami”, “Mosh yetishtirish” 12-kitob.[www.agrobank.uz](http://www.agrobank.uz).